


TALABALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANIRISH MODELI

Shamuratova Eleonora Aralbaevna
NDPI qoshidagi akademik litsey

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonini axborotlashtirishda asosiy diqqat, samarali multimediali o'quv kurslari ishlab chiqarishga qaratilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda tekstografik elektron mahsulotlar o'rniga interaktiv, multimedia manbalariga boy elektron resurs qo'llanilmoqda. Oliy ta'limda fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan elektron darsliklarning interaktivligi, multimedia manbalariga boyligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

1-rasmda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning modeli keltirilgan.

1-rasm. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ta'lim modeli



Hozirda ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish murakkab bo'lib bormoqda. Shu munosabat bilan ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanmoqda, o'qut-tarbiya jarayoni yangi o'quv uslubiy majmualar bilan ta'minlanmoqda.

Axborotlashtirish orqali ta'lim samarasi va sifatini oshirish uchun esa yangi darsliklar bir qancha innovatsion sifatlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun elektron axborot resursi sifatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Har qanday ta'lim manbasi kabi elektron axborot resursini ham sifatlar majmuasidan kelib chiqqan holda baholash lozim. Bunda baholashni an'anaviy va innovatsion turlarga bo'lish muhimdir:

- Davlat ta'lim standartlari, ta'limning namunaviy va ishchi dasturlariga mos kelishi;
- Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ilmiy asoslanganligi;
- Yagona metodikaga mos kelishi ("osondan qiyinga qarab borishi", materiallarni taqdim etishda ketma-ketlikka rioya etilishi);
- Dalillarga oid xatolar, axloq qoidalariga xilof, etikaga to'g'ri kelmaydigan tarkibiy qismlarga ega bo'lmasligi; va h.k

Elektron ta'limning asosini elektron ta'lim resurslari tashkil etadi, ular elektron-raqamli shaklda taqdim etiluvchi hamda fan mazmuni, uning tuzilishi va metama'lumotlarini o'z ichiga oluvchi ta'lim resurslari hisoblanadi [4].

Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishga bir qator talablar qo'yilgan. Jumladan:

- talabning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- o'qitishning turli metod va usullaridan uyg'un foydalanish;
- didaktik maqsad va tamoyillarni hisobga olish;
- individual ta'lim traektoriyasiga yo'naltirish;
- o'qituvchi va talabning birgalikdagi faoliyatiga tayanish;
- o'quv vositalaridan foydalanishda xavfsizlikning ustuvorligi [5].

O.D.Raximov elektron ta'lim resurslarini foydalanuvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik tiklanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o'quv kontentlarni uzatish tizimi sifatida tushunadi. Uning fikricha, elektron ta'lim resurslarini saqlash va kontentlarni takdim etish shakliga ko'ra: alohida fayllar – an'anaviy resurslarning faylli ekvivalentlari (jadvallar va grafik illustrasiyalardan iborat matnli hujjatlar, illustrasiyalarning grafik fayllari, audio–video formatli fayllar v.b.); gipermatnli kontentlar – matn, grafik; multimedia elementlari kabi elektron o'quv adabiyotlarning elementlaridan tashkil topgan elektron o'quv adabiyotlari va muayyan an'anaviy resurslarning elektron ekvivalenti sifatida tasniflangan [6].

Dars jarayoni murakkab ijodiy mashg'ulot bo'lganligi bois, uning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning mahorati va ijodkorligiga bog'liq. O'quvchilarni faollashtirish uchun axborot texnologiyalari, o'yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, konferensiya, davra suhbat, rolli o'yinlarni qo'llash, kitob bilan ishlash, kompyuter mashg'ulotlariga yetarlicha vaqt ajratish kerak.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rinli qo'llanishi mashg'ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishi bilan birga o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Ta'lim jarayonini multimediali resurslar bilan tashkil etish albatta ijobiy natijalarni ko'rsatadi. Multimediali ilovalarning afzallik tomonlaridan biri mavzularga tegishli animatsiyalardan giper murojaat yordamida foydalanish imkoniyati mavjud. Animatsiyalar harakat va ovoz bilan boyitilishi evaziga o'quv materiallarining mazmunini kengroq va tushunarli tarzda yoritib berish mumkin.

2-rasmda elektron ta'lim resurslarining ba'zi turlaridan namunalar keltirilgan.

Darslarda elektron ta'lim resurslaridan o'rinli foydalanish dars mazmunini boyitadi. Jumladan, o'qituvchi elektron darsliklar, internet, multimediali mahsulotlardan foydalanib dars mashg'ulotlarini tashkil etishi o'quvchilarning intellektual salohiyatini yanada o'sishiga turtki bo'ladi. Hech bir o'quvchi darsga bee'tibor qolmaydi. Darsda o'quvchi faolligi birmuncha oshadi. O'qituvchi oddiy darsda o'qituvchi kitobi va darslik bilan shug'ullanibgina qoladi, xolos, AKT asosidagi darslarda o'qituvchi bir nechta manbalarga murojaat qiladi. Jumladan, elektron uslubiy va elektron o'quv qo'llanma o'qituvchi uchun yordamchi hamda yetakchi material bo'lsa, elektron topshiriqlar va testlar, multimedia mahsulotlari o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun asosiy material bo'lib xizmat qiladi.

Agarda o'qituvchi darslarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan tashkil etsa:

- darsda o'quvchi faolligi oshadi;
- o'quvchining verbal kommunikativ ko'nikmalari shakllanadi;
- fanga bo'lgan qiziqishi va e'tibori kuchayadi;
- har bir darsni mualliflardek his etadi;
- axborot bilan ishlash, axborot qidirish, zarurlarini ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga solish, axborotlarning mazmunini tushunish, mantiqiy yaqinlarini ajrata olishga o'rganadi. Shular asosida axborotni olish madaniyati shakllanadi.

O'qituvchining o'zi esa texnologik jarayonda zamon bilan hamnafas, darslarni bir necha manbalar va eng so'nggi yangiliklar bilan boyituvchi, o'quvchi ko'z o'ngida mukammal shaxs sifatida shakllanib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev J.G'. va boshqalar. Interfaol ta'lim sifat kafolati. – T.: «YuNISEF», 2018.

2. Turdimatov M., Mirzaev J. Axborotni himoyalashda yopiq virtual qobig'ini loyixalashni matematik modeli //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A6. – S. 430-436.
3. Bilolov I. O'. i dr. Ta'lim muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalariga oid fanlarni o'qitishning zamonaviy usullari //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – S. 11-15.
4. Yunusova D., Nazarov I. Elektron ta'limning dolzarbligi. Pedagogika, 2021 yil, 3-son, 65-67-betlar.
5. Goloshumova G.S., Chernova O.E. Universitetning o'quv jarayonida elektron ta'lim platformasidan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik texnologiyalar. – M., 2017. – B. 52-58
6. Bondarenko E.A., Xabibrahmanova I.Yu. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: O'qituvchilar uchun qo'llanma. – M.: Biznes Meridian, 2011. – 260 b.
7. Raximov O.D. Elektron ta'lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi // Sovremennoe obrazovanie. – T., 2016. – № 2.
8. Yunusova D., Nazarov I. Modulli ta'lim tamoyillari asosida elektron o'quv kurslarni yaratish. «Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusidagi Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy anjuman (10-dekabr, 2021-yil) – T.: TDPU, 2021. 30-34
9. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Ped. fanl. nomz. ... dis. Avtoref. – T.: TDPU, 2011. – 23 b.
10. Nazarov I.U. Informatika darslarida blok-modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish. "Pedagogik ta'lim", 2011, №1. – B.69-73.